

NISHOTIYNING “HUSN VA DIL” DOSTONI VA OBRAZLARDA RUHIY KECHINMALAR TALQINI

Xomitaliyeva Madina

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli xorazmlik shoir Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostoni, unda ilgari surilgan ma’naviy poklik, axloqiy yetuklik, ma’naviy uyg‘onish masalalarining obrazlar talqinida tahlil qilinadi. Asardagi badiiy timsollar orqali muallifning tarbiyaviy qarashlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: komil inson, didaktika, tasvir, badiiy timsol, qalb, ruhiy kechinma, tasavvuf, badiiy talqin, majoziy obraz.

Muhammadniyoz Nishotiy o‘zining “Husn va Dil” dostonini 1192-hijriy, 1771-milodiy yilda yozib tugatgan. Ushbu asar 62 bobdan iborat bo‘lib, unda majoziy obrazlar orqali insoniy yetuk fazilatlar, ruhiy kechinmalar, ma’rifat va sevgi kabi oliyjanob hislatlar ko‘rsatib beriladi. Asarda Nishotiy bu dostonini o‘zidam avvalgi Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi to‘rt shoirning “Xamsa”sini o‘qib ta’sirlangani natijasida bularning birinchi dostoniga javob tariqasida yozganini keltirib o‘tadi. Jumladan, aytib o‘tish joizki, ushbu dostonni ko‘proq muallif Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan ilhomlanib yozgan deyish mumkin, chunki Nishotiyning dostonidagi voqealar va ayrim obrazlar Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi voqealarga o‘xshash tarzda tasvirlanadi.

Doston xalq og‘zaki ijodidagi an’anaga muvofiq farzandsizlik motivi bilan boshlanadi. Umid qilib kutilgan farzand va asar bosh qahramoni Fuod (Dil) bo‘ladi. Asar voqealari Fuodning o‘ziga maftun qilgan Husn ismli yor visoliga yetish yo‘lida chekkan zahmat va mashaqaatlari asosiga qurilgan. Aslida bu obrazlar majoziy bo‘lib, qalbning Alloh visoliga osonlikcha, mashaqqatlarsiz yetib bo‘lmasligini ko‘rsatib beradi. Shu ma’noda Fuod ham Yor vasliga yetish uchun turli xil mashaqqatlar, iztirob, qo‘rquv, azob,

Raqib dev, sehr-u jodu kabi qiyinchiliklarga duch keladi. Muallif bu obrazga ramziy yuksaklik, ruhiy komillik sifatlarini mujassamlashtirgan bo'lib, buni asarning boshidagi voqealar orqali ham bilib olish mumkin. Asar boshlanishida Fuodning tug'ilishida ham uning sulton va malikaga rahmat sifatida berilgani, uning qiyofasi, odob-axloqi, aqli va zukkoligida yuqorida keltirilgan sifatlar o'z aksini topadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Dostonning voqealari davomida ham bunga duch kelimiz.

Dostonda voqealar rivojida yana bir muhim rol o'ynaydiga qahramonlardan biri- bu Nazar obrazi. Nazar dastlab asarda shahzoda Fuodning xizmatkori sifatida voqealar rivojiga kirib keladi. Keyinchalik, asar davomida uning fidoyiligi, jasorati va sadoqati bilan e'tibor markaziga tushadi. Bu obraz qahramon bo'lmasa-da, haqiqiy do'st, sadoqatli yo'ldosh va ko'ngil yo'riqchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu sifatlar, ayniqsa, voqealar davomida bir o'zi yovuz kuchlarga qarshi kurashishi, og'ir ruhiy kechinmalarga dosh berishi kabi holatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. U sarguzashtlari davomida ham ma'naviy, ham jismoniy yetuklikka qarab ketayotgani Robbisi yo'liga tushgan solik kabi tasvirlanadi.

Voqealar rivojida Raqib dev obrazi ham majoziy ma'no kasb etadi, ya'ni bu obraz insonning nafsini ifodalaydi, Har bir inson, solik kishi Alloh jamoliga yetish niyatida ekan, avvalo, o'z nafsini yengishi shart hisoblanadi, yo'qsa, niyatiga yeta olmaydi. Shu ma'noda, Nazar ham sarguzashtlari davomida Raqib devga duch keladi va uni amallab yengib o'tadi, Aynan shu o'rinda aytish kerakki, bu voqea Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" asarida Farhod ham nafsning majoziy timsoli ajdarhoni yengib o'tishiga o'xshash holatda yozilgan. Shu bilan birga, Raqib devdan o'tish uchun Himmatshoh Nazarga ogohlik gavharini berishi ham Navoiy asarida o'xshash uchraydi.

Ushbu doston allegorik tarzda yozilgan bo'lib, muallif har bir obraz va voqealar orqali chuqur ma'noni ifodalaydi. Shu jumladan, Husn ham ilohiy jamolning timsoli sifatida namoyon bo'ladi, asar oxirida ham Husnni visoliga yetgan Fuodning qalbida ilohiy osoyishtalik va lazzat hissi paydo bo'ladi. Bu o'rinda muallif Husnda Alloh tajallisini ifodalaydi. Chunki Fuodning yor vasliga yetishida kechgan mashaqqat va qiyinchiliklari

solikning Alloh jamoliga yetish uchun boshida kechhirishi kerak bo'lgan ruhiy kechinmalar, yengib o'tishi kerak bo'lgan to'siqlarni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Nishotiyning ushbu dostoni o'zbek adabiyotidagi tasavvufiy-ma'rifiy, didaktik dostonlarning yorqin bir na'munasi hisoblanadi. Asarni tasavvufiy tomondan o'rganish uning mazmunini to'laroq anglashga yordam beradi. Dil nazari dunyoviy hislar, g'uborlardan tozalanib, dunyo noz-ne'matlaridan voz kecha olgani va obihayot suviga erishgani komillikka yetishganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolid Rasulning Nishotiy "Husn va Dil" dostoni. Toshkent-1967.
2. Mirzaliyevna M. Y. (2024). MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING "HUSN VA DIL" DOSTONI. ASARDA FOLKLOR AN'ANALAR, 145-147.
3. O. Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent-2010.